

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



Jizzax davlat pedagogika universiteti  
prof. Sh.S. Shabobov  
rektori  
2022 yil

### GEOGRAFIK TADQIQOT USULLARI

### FANING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110 000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi: 60111000 -Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

JIZZAX-2022



Fan modul kodi: 351GeoTU06	O'quv yili 2022-2023	Semestr 3	ECST- Kreditlar 2
Fan/modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili. o'zbek		Haftadagi dars soatlari 2
1. Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Geografik tadqiqot usullari	Ma'ruza: 16 Amaliy: 14	30	60
2.	<p><b>II. Fanning mazmuni.</b> "Geografik tadqiqot usullari" fani oliy ta'lim tizimida yuqori malakali geografiami tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. U talabalarda geografyaning mazmuni, zamonaviy tuzilishi, maqsad va vazifalari, ilmiy va amaliy ahamiyatiga doir bilimlarni shakllantiradi. Ushbu fanni o'qitishning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga asoslangan holda to'g'ri tashkil etishda yangi ilmiy g'oya va tushunchalar hamda qonuniyatlardan, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish sohasida jahon tajribalarida erishilgan yutuqlardan umumli foydalanish zarurligi bilan belgilanadi.</p> <p>Fanning ahamiyati tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini o'rganishdagi roli, tabiat qonuniyatlarini bilgan va uni hisobga olgan holda iqtisodiyot va ijtimoiy hayotni hududiy tashkil etishni o'rganishdagi tutgan o'rmini ochib berish, talabalarda aholi, ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining joylashish xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar haqida tushuncha hosil qilish, fanning bosh tushunchalari mohiyatini tushuntirish va amaliyot bilan bog'lash, mintaqalar, mamlakatlar va ularning turli hududlarida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va aholining hayot faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratish masalalarini hal etish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.</p> <p><b>Oqitishdan maqsad</b> - talabalarda umumgeografik qonuniyatlar asosida tabiatda sodir bo'ladigan hodisalarning tub mohiyatiga yetish, talabalarga geografyaning ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy asoslarini soda tilda tushuntirish va o'rgatish, ushbu fanga oid hududiy qonuniyatlarini, hodisa va voqealarning sabab oqibatini aniqlash, baholash va ularni bashorat qilish haqida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifalari</b> - Fanning geografik fanlar ichida tutgan o'rni, umumgeografik qonuniyatlar asosida tabiatda sodir bo'ladigan hodisalarning tub</p>		



mohiyatiga yetish, talabalarga geografianing ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy asoslarini o'rganish;

“Geografik tadqiqot usullari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

-fanning asosini tashkil etuvchi bosh tushunchalarning mohiyatini ochib berish;

-fanning tadqiqot uslubiyoti, uslublari va asosiy tamoyillari hamda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning hududiy qonuniyatlarini o'rganish;

-fanning o'rganish ob'ekti bo'lgan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy majmualarning vujudga kelishi, rivojlanishi, joylashish qonuniyatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilib, izohlab berish;

- voqea va hodisalarni tarixan o'zgarishda, kompleks holda o'zaro aloqadorlikda qarash;

-ishlab chiqarish kuchlarini ijtimoiy tashkil etishning asosiy shakllari haqida tushunchaga ega bo'lish;

-turli mintaq va hududlarning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga iqtisodiy-geografik baho berish, bashorat qilish malakalariga ega bo'lishdan iborat.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-Modul. Kirish. Fanning maqsad va vazifalari. boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

#### 1-mavzu. Geografik tadqiqot usullari fanining maqsad va vazifalari (2 soat).

Geografiya – geografiya fanlari tizimi ekanligi. Tabiiy geografiya – tabiiy hududiy komplekslarni o'rganuvchi fan. Umumiy tabiiy geografiya va maxsus tabiiy geografiya.

#### 2-mavzu. Tabiiy geografik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari (2 soat).

Tadqiqot g'oyasi, maqsadi, dolzarbligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslanadi, zarur ma'lumotlar bilan to'ldirib boriladi va mustahkamlanadi. Tadqiqotning ustuvor yo'nalishi ilmiy, metodologik va amaliy jihatdan yangi dalillar bilan isbotlanadi. Tadqiqot ob'ektiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, kartografik asosni, aero va kosmik suratlarini tayyorlash, tahlil qilish. To'plangan ma'lumotlarni umumiy tavsifi. Xomaki hisobot yozish. Transport turlarini tanlash, zarur materiallar, jihozlar olish. Ekspeditsiya a'zolarini tanlash, meditsina ko'rigidan o'tkazish, safar hujjatlari va smetalar tuzish.

#### 3-mavzu. Geologik va geomorfologik tadqiqotlar (2 soat).

Geologik tadqiqot ishlarining maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishlarini tashkil etish. Kerakli zarur jihozlar. Geologik ochiq Yer po'stining “darcha”si ekanligi va uni yozish tartibi. Joyning paleogeografik taraqqiyotini aniqlash. Toshqotgan organizm qoldiqlari va ularni tahlil qilish. Arxeologik, paleogeografik va paleontologik ma'lumotlarni Relbef-geomorfologik tadqiqot ishlarining tekshirish ob'ekti. Relbefning morfologiyasi, morfometriyasi, genezisi, yoshi, rivojlanish bosqichlari, geologik strukturalar bilan bog'likligi, landshaftning yetakchi komponenti ekanligi, kesma va blok diagrammalari.

#### 4-mavzu. Meteorologik va mikroiklimiy kuzatishlar(2 soat).

Meteorostantsiyalardagi jihozlar, dalada (ekspeditsiya davrida) zarur bo'lgan asbob-uskunalar. Kuzatuv vaqtlari.

Meteorologik maydonchada kuzatish ishlarini tartib bilan olib borish: dastlab havoning bulut bilan koplanganlik darajasini va turlarini aniqlash, so'ngra kuzatish ishlarini asbob-uskunalar yordamida bajarish. Mikroiklim ma'lumotlarini psixrometr, barograf, aneroid, anemometr va boshqa asboblardan o'lchash, sinoptik kartalar tuzish. Iqlim kartalarining mazmuni. Iqlim va sinoptik kartalarning shartli belgilari, tahlili, ahamiyati. Maxsus lug'atlar, ma'lumotlar (spravochniklar), keksa kishilardan olingan axborotlar va ularning ahamiyati

#### 5-mavzu. Hidrologik tadqiqotlar (2 soat).

Yer usti va yer osti suvlari, ularning turlari. Hidrologik tadqiqot ishlarining ikki bosqichi. Birinchi bosqichda daryo, irmoq, ko'l, buloqlarning morfologik tuzilishining o'rganilishi. Ikkinchi bosqichda gidrometrik ishlarni bajarish. Gidropostlar. Tadqiqot paytida qo'llaniladigan asbob-uskunalar.

Er usti va yer osti suvlaridan namunalar olish va suv sarfi, suvning fizik (loyqaligi, tezligi, harorati, tiniqligi, rangi) va kimyoviy (tarkibi, ta'mi, hidi, ichishga yaroqligi) xususiyatlarini aniqlash.

#### 6-mavzu. Tuproq, geobotanik, zoogeografik qoplamini tadqiq etish(2 soat).

Geotizim (landshaft) ning shakllanishida tuproqning ahamiyati. Tuproq – landshaftning “ko'zgu”si, nozne'matlar manbai. Dalada tuproqni tadqiq etish jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalar.



Tuproq kesmasini geologik ochiq, shurflar yordamida tuzish. SHurflni qazish tartib-qoidalarini. Namunalar olish. Tuproq kesmasini yozish tartibi, maxsus savolnoma (blanka)larni to'ldirish. Tuproqning mexanik tarkibini dalada aniqlash usuli. Asosiy tuproq gorizontlari (A, V, S), qalinligi, rangi, zichligi, namligi, yot jinslarining uchrashi va h.k. Tuproqning meliorativ holati. Tuproq kartalari, kesmalari ularning shartli belgilari, mazmuni.

#### 7-mavzu: Kompleks tabiiy geografik tadqiqotlar (2 soat).

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Qo'llaniladigan asosiy uslublaridan hisoblangan kompleks (landshaft) kesmalarni tuzish va nuqta yozish usublarining mohiyati. Landshaft kesmasi yunalishidagi nuqtani kompleks yozishning tartibi.

Landshaftning morfologik tuzilishini aniqlash va ularni kartaga tushirish. Fatsiya, urochishalarni ajratish va ularga tavsif berish. Joyning ekologik holati va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilish. O'zbekiston tekislik, tog'oldi va tog' geotizmlarini o'rganishning xususiyatlari, tadqiqotlarda zonallik va balandlik mintaqalanish qonuniyatlarini hisobga olish

#### 8-mavzu: Ijtimoiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlar(2 soat).

Mehnat resursi tushunchasi va uning mazmuni. Mehnat resurslarining tuzilishi. Mehnat resurslarini geografik o'rganishning xususiyatlari. Mehnat resurslarini son va sifat tuzilishi, shakllanishi va taqsimlanishidagi hududiy tafavutlarni aniqlash geografik tadqiqotlarning muhim vazifasi. Aholi punktlarini geografik o'rganishningo'ziga xos xususiyatlari. Shahar tushunchasining mohiyati va uni iqtisodiy-sotsial geografyaning murakkab tadqiqot ob'ekti ekanligi. Shaharni iqtisodiy geografik o'rganishning asosiy yo'nalishlari. Urbanizatsiya jarayonlari. Shaharning rivojlanishida tabiiy sharoit va resurslarni baholash. Shaharning rivojlanishida sotsial-iqtisodiy omillarni baholash. Shahar aholisi va mehnat resurslarini o'rganish.

#### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (14 soat)

Fan bo'yicha rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar davomida nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Amaliy mashg'ulotlarda asosiy e'tiborni geografik o'rganishga qaratishtirib olinadi. Ma'lum sabablarga ko'ra ma'lum kirmagan va murakkab bo'lgan tushunchalarni amaliy mashg'ulotlarda ko'rib o'tish, kartani o'qish, tushinish va yozuvsiz karta bilan ishlash yo'llarini amaliy mashg'ulotlarda ko'rib o'tish maqsadga muvofiq. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

-amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;

-o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatlari talabalarda qiziqish uyg'otish;

-talabalarda natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;

-talabani nazariy-metodik jixadan tayyorlash;

-amaliy mashg'ulotlarda nafaqat aniq mavzu Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsifiya etiladi:

#### 1-Mavzu: Landshaftning kichik birliklar adabiyotini o'rganish, sxemasini chizish(2 soat).

##### Reja:

1. Landshaftshunoslikning morfologik birliklari
2. Landshaftshunoslikka doir adabiyotlar tahlili
3. Landshaftlarda amalga oshirilgan tadqiqotlarni sxemasini chizish

#### 2-Mavzu: Joyning geologik tuzilishini o'rganish(2 soat).

##### Reja:

1. Joyning geologik tuzilishi haqida adabiyotlar tahlili
2. Joyning geologik tuzilishini o'rganishda geografik tadqiqotlarning ahamiyati.
3. Geologik tadqiqotlarda yig'ilgan materiallar asosida geologik karta yaratish

#### 3-Mavzu: Joy mikroiqlimni o'rganish. (Havo harorati, bosimi, yog'inlar, shamol (2 soat).

##### Reja:

1. Iqlimshunoslikning nazariy asoslari.
2. Joyning mikroiqlimi tuzilishini o'rganishda geografik tadqiqotlarning ahamiyati.
3. Mikroiqlim tadqiqotlar davomida yig'ilgan materiallar asosida iqlim kartasini yaratish.

#### 4-Mavzu: Gipsometrik kesma chizish(dalada tadqiqot o'tkazish (2 soat).

##### Reja:

1. Yer usti reliefiga doir adabiyotlar tahlili
2. Joyning reliefi tuzilishini o'rganishda geografik tadqiqotlarning ahamiyati.
3. Geomorfologik tadqiqotlar davomida yig'ilgan materiallar asosida gipsometrik profilini tuzish.



<p><b>5-Mavzu: Landshaft kartasi va uning morfologik birliklarini kartada tasvirlanishini o'rganish (2 soat).</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Landshaft birliklari haqida materiallar yig'ish.</li> <li>2. Landshaft morfologik birliklarini o'rganishda tadqiqot usullarini o'rni</li> <li>3. Tadqiqot materiallari asosida landshaft kartalarini chizish.</li> </ol> <p><b>6-Mavzu: Xududning axolisi, sanoati, qishloq xo'jaligini tasvirlovchi karta va chizmalar chizish (2 soat).</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tadqiqot obektining iqtisodiy-ijtimoiy ma'lumotlarini tahlil qilish</li> <li>2. Xududning axolisi, sanoati, qishloq xo'jaligining kartasini tuzish</li> <li>3. Xududning axolisi, sanoati, qishloq xo'jaligini o'rganishda tadqiqot usullarining ahamiyati</li> </ol> <p><b>7-Mavzu: Hisobot kartasini tayyorlash (2 soat)</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tadqiqot davomida yig'ilgan materiallarni tahlil qilish</li> <li>2. Tadqiqot obektining kartasini yaratish</li> <li>3. Hisobot kartasini yaratishning ahamiyati</li> </ol> <p><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b></p> <p><b>Mustaqil ta'lim mavzulari mazmuni va ularga ajratilgan soatlar (30 soat)</b></p> <p>«Geografik tadqiqot usullari» kursi bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash. <b>Geografik tadqiqot usullari</b> fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tashkil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Malakaviy amaliyotni o'tash chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lami ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.</p> <p>Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarining mavzulari:</p>
---

<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ekspeditsiya geografik tadqiqotlarda davr. Kitob bilan ishlash</li> <li>2. Topografik karta bilan ishlash usullarini adabiyotdan o'rganilishi</li> <li>3. Geokomplekslarning morfologik birliklari (geografik adabiyotlardan o'rganish)</li> <li>4. Geografik xisobot yozish usullarini o'rganish</li> <li>5. Mikroiklim kuzatishlari olib borish usullari o'rganish</li> <li>6. O'zbekiston (Jizzax viloyati) tuproqlari o'rganish</li> <li>7. O'simliklarni marshrutlar bo'yicha o'rganish</li> <li>8. Kartadan O'zbekistonning sanoat korxonalarining joylanishini o'rganish</li> <li>9. O'zbekiston qishloq xo'jaligini o'rganish</li> <li>10. Geografik adabiyotlar bilan ishlash</li> <li>11. Kompleks tabiiy geografik kesma chizish (Sangzar vodiysi)</li> <li>12. Kompleks tabiiy geografik chizma chizish</li> <li>13. Sangzar daryo kesmasi (geobotanik kesma)</li> <li>14. Sangzar daryo vodiysini geologik va geobotanik kesmalari</li> <li>15. Geomorfologik shartli belgilarni chizish</li> <li>16. Tabiiy geografik kartalarning regionlar bo'yicha rayonlashtirish</li> <li>17. Daryolarni o'rganish</li> </ol> <p><b>3. V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Talaba – “Geografik tadqiqot usullari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba: <ul style="list-style-type: none"> <li>- fanning asosiy manbalari, g'oya, tushuncha, nazariya va qonuniyatlar haqidagi bilimlarni <i>bilishi kerak</i>;</li> <li>- voqea va hodisalarni joylashish xususiyatlarini asoslab berish va hayot bilan bog'lay olish, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, mustaqil va zamonaviy fikrlash va o'z fikrini aniq namoyon eta olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>;</li> <li>- fanga oid statistik ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish <i>matkalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul> </li> </ul> <p><b>4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruza; <i>interfaol, keys stadi, munozara</i></li> <li>• <i>interfaol keys-stadilar</i>;</li> <li>• <i>dialogik yondashuv</i></li> <li>• <i>SWOT tahlili</i></li> <li>• <i>Wenn diagrammasi</i></li> </ul>
--



<p>o'quv-dala amaliyoti. Uslubiy qo'llanma. Qarshi-2015.</p> <p>8. Shermuxamedov N.A. Ilmiy taqiqot metodologiyasi. Darslik. T-2015.</p> <p>7.Soliev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodlar va amaliyot. – T.: Kamalak, 2013.</p> <p>8.Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya. Osnovi nauki. – M.: Vldos, 2003.</p> <p>9. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T., 2004.</p> <p>10. Alaev E.B. Sotsialno-ekonomicheskaya geografiya. Ponyatiyno-terminologicheskiy slovar. - M., 1980.</p> <p>11. Asanov G.R. Sotsial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug'ati. –T., 1990.</p> <p>12. Баранский Н.Н. Научные принципы географии. Избр. труды. –М., 1980.</p> <p>13. Джонсон Р.Дж. География и географы. –Л., 1989.</p> <p>14. Саушкин Ю.Г., Введение в экономическую географию. - М., 1970.</p> <p>15. Soliev A., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari.-T., 1999.</p> <p>16. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh.O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.- T., 2010.</p> <p>17. Tashteva S. Mutaxassislikka kirish. O'quv-uslubiy majmua. T.,2011.</p> <p>18. Экономическая, социальная и политическая география: мир, регионы, страны. Под. Ред. И.А.Родионовой. М.:Экон.-Информ., 2008.</p> <p>19. www.bearingpoint.uz</p> <p>20. www.Zivo.net</p> <p>21. O'zMU ichki tarmog'i.</p> <p>22. www.geogr/msu.ru/geom.html</p> <p>23. www.MGPU.ru/materials/GEOGRAPH/geologia s osn geomorfologi</p>	<p>7. “30” 08 dagi 2 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>8. Fan dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 2022 yil Fan/modul uchun ma’sullar: X.J.Ergashevich-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida o'qituvchisi</p> <p>9. Taqizchilar: M.R.G'o'dalov-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida dotsent J.Xasanov-SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasida o'qituvchisi PhD.</p>
---	---

<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>Blits so'rov</i></li> <li>• <i>nilufar guli</i></li> <li>• <i>baliq skeleti</i></li> </ul> <p><i>blits test va boshqalar</i></p> <p><b>5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b> <b>Kreditlarni olish uchun talablar.</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil muhohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p> <p><b>Joriy nazorat.</b> Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p><b>Oraliq nazoratlar.</b> Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p><b>Yakuniy nazorat</b></p> <p>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>	<p><b>6. VIII. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <p>1.Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar№11</p> <p>2.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston”, 2017.</p> <p>7.Usmonov.R., Murtozoyev B.Ch., Eshboev B. T. Geografiyadan malakaviy</p>
--	--